

**O‘ZBEK DAVLATCHILIK TARIXIDA JADIDLARNING ILMIY
MEROSINING O‘RNI VA AHAMIYATI***Yusupova Laylo Umidbek qizi**Guliston davlat universiteti**Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti**Tarix yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, jadid namayondalarining mavjud tarixiy asarlarining mazmun mohiyati va o‘z fikir va qarashlari, o‘sha davr tarixiy voqealarga munosabatlari o‘rganilgan. Shuningdek bugungi kunda yosh avlodni ulg‘aytirishda ta‘lim- tarbiya berishda tarix ilmining o‘rnini mulohaza qilibgina qolmay ularning boshqa xalqlar va islom tarixi bo‘yicha asarlari ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Tukiston, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Zakiy Validiy, Abdulla Avloniy, Munnavarqori Abdurashidxonov, tarix, jadidchilik.

Turkiston jadidlari mamlakatni qoloqlik, tarqoqlik, savodsizlik botqog‘idan faqat ma‘rifat qutqarishi mumkinligini yaxshi tushunganlari uchun dastlab asosiy sa‘y-harakatlarini yangi usuldagi maktablar tashkil qilish, ularning mazmun va shaklini takomillashtirishga qaratdilar. Jadidchilik fenomeni shu davrdagi sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo‘jaligining rivojlanishi, ma‘naviy hayotdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lsada, uning bir qancha yo‘nalish va bosqichga ega bo‘lgan g‘oyaviy manbalari borligini e‘tirof etish zarur.

Jadidlarning ma‘rifatparvarlik g‘oyalari ularning ma‘naviy merosida ham o‘z aksini topdi. Jadidlar yangi maktablar tizimini takomillashtirish uchun darsliklar yaratib, o‘z asarlarida jamiyat ma‘naviy hayotiga salbiy ta‘sir etuvchi illatlarni yoritishdi va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlashdi. Fitrat tarixiy qarashlarida xonliklar davri tarixini shafqatsiz zulm davri, adolatsizlik, begunoh qonlar to‘kilgan davr deyish ham mumkin. Boshqaruv jarayonida hukmdorlar asosan jazo choralaridan foydalanganini, qo‘lini qonga botirib, xonlik jallodlarini qo‘li doim band bo‘lganini ko‘rish mumkin: “... podshohlik qon bilan sug‘oril turg‘an bir og‘ochdir. Qon oqib turmag‘an yerda bu og‘ochning qurib qolishi aniqdir”. Jadidchilik harakatining faol vakillaridan yana biri bu Munavvarqori Abdurashidxonov edi. Uning “Xotiralarim” nomli asari yaqin o‘tmishimiz XX asr boshlarida ro‘y bergan voqealar tarixiga bag‘ishlanadi. Asar o‘zi ta‘kidlaganidek uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi jadidchilikning maydonga kelishidan 1917-yil fevral inqilobigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Unda, asosan, jadidchilikning sho‘ro davridagi ma‘orif va madaniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, mustaqillik uchun mustamlakachilik siyosatiga qarshi

oshkora va yashirin olib borgan kurashi yoritiladi. Ikkinchisi 1917-yil fevral-oktabr, uchinchisi esa sho‘ro davrini (1917-1929-yillar) qamrab olgan.

Asr boshlarida istiqlol va milliy ozodlik uchun kurash olib borgan “Ittihodi taraqqiy”, ”Milliy ittihad” va ”Milliy istiqlol” kabi oshkora va yashirin tashkilotlar faoliyati tarixi ularning rivojlangan mamlakatlar bilan aloqa bog‘lashga urinishlari tarixi: ”Ittihodi taraqqiy” tashkiloti Turkiya bilan aloqa bog‘lash uchun yuborgan komissiya Turkiyada hukumat to‘ntarishi bo‘lgan vaqtga to‘g‘ri keladi va uchrashib gaplashishi kerak bo‘lgan odamlarni topa olmay, muvaffaqiyatsizlik bilan qaytib keladi” ham yoritilgan. Turkistonning tarixi, bu hududdagi tarixiy yodgorliklar, tarixiy shaxslar, turkiy xalqlar tarixiga oid bir qancha asarlar yaratadi. Turkiston tarixini yetarli darajada yoritilmagan deb hisoblagan Mahmudxo‘ja Behbudiy “Sadoyi Turkiston” gazetasida “Milliy tariximizni kim yozar?” degan savolni o‘rtaga tashlaydi va : “Bizning fikrimizcha, munday bir tarix yozmoqlik nihoyatda qiyin bir ish bo‘lib, hozirdamuning ifosi bizlarning qo‘limizdan kelmayturg‘onga o‘xshaydir. Shuning uchun bu xizmatni Turkiston tarixi ila oshino bo‘la boshlagan yosh muarriximiz muhtaram Ahmad Zaki Validiy afandining qalamidan umid etmaktamiz”, deya bu mas’uliyatni Validiyga topshiradi. Uning “Turk xalqlari tarixiga kirish”, “O‘rta Osiyo tarixining islom davri”, “Xudoyorxonning so‘nggi kunlari”, “XVIII asr Farg‘ona tarixiga doir”, “Buxoro xonligiga sayohat”, “Turkistonning madaniy-ma‘naviy boyliklari”, “Al-Beruniy shimol xalqlari xususida”, “Qadim Xorazmda til va madaniyat”, “Turkiylar shajarasi”, “Amir Temur maqbarasi”, “Termur va Boyazid Yildirim”, “Buyuk hukmdor Shohrux”, ”Temur avlodlari”, “Sharqda sho‘ro siyosati”, “Temurning g‘arbga yurishlari”, “Chingizxon” kabi asarlari va Bartold bilan birgalikda yozgan “Temurning Hindistonga safari” asari vatanimiz va turkiy xalqlar tarixiga bag‘ishlanadi.

Begali Qosimov o‘z asarida Validiyning turk xalqi haqidagi: “Minglarcha yillik tariximizda qizil ip bo‘lib o‘tgan xususiyatlarimizdan biri jonlilik va bitmas faollikdir... -yozadi Ahmad Zakiy Validiy va –Turk millatining tarixning biz bilgan davridan buyon askar bo‘lib kelganligini, intizomsevarligini, hayotning eng og‘ir mushkulotiga ham tayyor turishini, mashaqqatlarga uzoq muddat sabrli bo‘la olishini” ma‘lumotlarini keltirib o‘tadi. Umuman olganda, mavzudan uzoqlashmay, islom tarixiga doir asarlar borasida Abdulla Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” (1913) Abdurauf Fitratning «Muxtasar Islom tarixi», Mahmudxo‘ja Behbudiy (1914), Shokir Sulaymon (1918) kabi adiblarning ham «Qisqa Islom tarixi» XIX asrning oxirgi choragiga kelib, tuprog‘i g‘ayridinlar oyog‘i ostida toptalgan, davlat mustaqilligidan judo bo‘lgan Turkiston xalqi erta-indin e‘tiqod mustaqilligidan ham mahrum bo‘lmasligiga hych kim kafolat bera olmasligini nazarda tutib yozilgan bo‘lsa ajab emas.

Abdulla Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” va Abdurauf Fitratning «Muxtasar Islom tarixi» asarlarini tadqiqot ishimizning asosiy manbalari sifatida tanlab oldik. Chunki Mahmudxo‘ja Behbudiy (1914), Shokir Sulaymon (1918) kabi adiblarning «Qisqa Islom tarixi» kabi darsliklarini topishga muvaffaq bo‘lmadik. Shu kabi Munavvarqori Abdurashidxonovning ham qisqa islom tarix yaratganligi xabar qilinsada u o‘zbek tilida nashr qilinmagan. M. Abdurashidxonovning “Havoj ad-diniya”, (Din ahkomlari) kitobini muallifning nevarasi Ismoilxon hoji akaning uylariga borib, o‘qib ko‘rdim va rasmga tushirib ma'lumotlar yig‘ib keldim .

Fitrat Avloniydan farqli ravishda Arab yarim oroli va u yerdagi xalqning ahvolini alohida mavzu ostida bayon qiladi. Uning yana bir jihati darslikda talabalarning bayon qilingan voqyea-hodisalarni aniq tasavvur qilishi va hifz qilishi uchun voqyea bilan bog‘liq jo‘g‘rofiy ma'lumotlar ham keltiriladi. “Uni Arab yarim oroli (Jaziratul-arab), deb ataganlar. Bu yerning xalqi asosan arablardan tashkil topgan. Arab yarim oroli Rum va Eron yurtlari kabi obod emas, balki ko‘p yerlari qumlikdan iborat bo‘lib, ba’zi qit‘alardagina obod manzillar mavjud edi. Bu qit‘alardan eng mashhuri va muboragi Hijozdir, chunki bu qit‘ada Makka bilan Madina joylashgan. Xaritaga qarasangiz ko‘rasizki, Hijoz qit‘asining bir tarafi Qizil dengiz va boshqa bir tarafi cho‘ldir”.

Fitrat Abbosiy xalifalardan Xorun ar-Rashid, Ma'mun xalifaligi va bu davrlarda amalga oshirilgan ishlarga alohida to‘xtalib o‘tadi. Xorun ar-Rashidning o‘g‘li va abbosiylarning yettinchi xalifasi bo‘lgan. Ilm va ma'rifatning taraqqiysi xususida otasidan ham ko‘proq harakat qilgan. Qayerda biror olim yoki dononi eshita, ularni mamlakatga keltirib asrar va qayerda hikmatli kitoblar xabarini eshita, keltirib arab tiliga tarjima qildirgan. Barcha ilm olimlari din va mazhabidan qat’iy nazar uning atrofida jam bo‘lganlar. Bog‘dodda ko‘p bilimli tabiblarni to‘plagan va oliy darajadagi shifoxonalar barpo qilgan. Musulmonlarning san'ati, tijorati va ziroati Ma'mun davrida boshqa hamma ajnabiy mamlakatlardan ko‘proq taraqqiy qilgan edi. Fitrat Abbosiylar davlatining zavolida Ma'mundan so‘ng Abbosiylar jamoasidan xalifalik qilgan yigirma nafar kishining aksariyati bebro‘ va ba’zilari badaxloq ekanini yozadi. Binobarin, abbosiylar davlati kundan kun tanazzul topdi. Bora-bora Islom mamlakatlarining har tarafidan bir podshoh, ketidan ikkinchisi paydo bo‘la boshladilar. Fitrat ularning xalifaligi podshohlik qilish bo‘lmay, balki shayxlik edi. Usmoniya davlati xalifalikni shulardan olgan, deb yozadi.

Xulosa qilib aytganda jadidlar o‘z xalqini ma’rifatli holda ko‘rishni istadi, har qanday qullik, xurofotga berilishi, milliy biqqlikdan ozod bo‘lishiga intildi. Ular o‘z faoliyati boshlaridayoq Turkiston aholisiga jahon sivilizatsiyasi yutuqlari bilan oshno bo‘lish yo‘lini taklif etdilar. Bu yo‘l milliy va diniy-ma’naviy qadriyatlardan voz kechish emas, balki, aksincha, ular asosida, bundan keyingi rivojlanish va taraqqiyotga

halaqit beruvchi eskirgan aqida va xurofotlardan voz kechish bilan sekin-asta o'tish edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. I jild. Abulfayzxon. -T.: "Ma'naviyat", 2000. -B. 183.
2. Abdurashidxonov M. Xotiralarim. Jadidchilik tarixidan lavhalar. -T.: "Sharq", 2001. -B. 65.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar "Turkiston tarixi" kerak. -T.: "Ma'naviyat", 1999. -B. 178.
4. Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. -T.: "Fan va texnologiya", 2008. -B. 21.
5. Munavvarqori Abdurashidxonovning "Havoij ad-diniya", (Din ahkamlari) kitobi 1912 yil Qozonda nashr etilgan.
6. Abdurauf Fitrat «Muxtasar Islom tarixi» -T., -B. 6.
7. Yusupova, L. (2024). THE ROLE OF MUNAVVARQORI ABDURASHIDKHANOV IN THE JADIDIST MOVEMENT. Science and innovation, 3(C1), 94-97.
8. АБДУЛХАЙ, Г. ТУРКИСТОН МАТБУОТИДА ЯНГИ ДАВЛАТ ХУСУСИДАГИ МУНОЗАРАЛАР (1918-1924 ЙИЛЛАР). INFOLIB: ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала" E-LINE PRESS", (1), 56-60.
9. Urazalievna, A. G., & Fotima, X. (2024). TURKISTON QO'RBOSHILAR HARAKATI VA ULARNING FAOLIYATI. TALIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 5-10.
10. Urazalievna, A. G., & Aziza, P. (2024). FARG'ONA VODIYSIDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 12-15.
11. Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ?. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(1).
12. Iskandar, O. (2022). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF PLIGRIMAGE TOURISM IN OUR REPUBLIC. CONTEMPORARY ART AND CULTURE, (ISSUE 11), 47-49.